

**TARIXIY ASARLAR TARJIMASINING LISONIY USLUBIY
XUSUSIYATLARI (B.ERMATOVNING FRANSUZ TILIDAGI
TARJIMALAR MISOLIDA)**

Sadriddinova Dildora Mahammadjanovna
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Tarjima tufayli milliy adabiyotlarga yangi g'oyaviy yo'nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiiy tasvir vositalari kirib keladi. SHu ma'noda, tarjimani asliyatni qayta yaratish, talqin etish san'ati deb ta'riflash mumkinligi haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: syujet, janr, yangi obraz, adabiyotning ta'sirchanligi, didaktik, interaktiv

**LINGUISTIC AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE TRANSLATION
OF HISTORICAL WORKS (IN THE EXAMPLE OF B. ERMATOV'S FRENCH
TRANSLATIONS)**

Sadriddinova Dildora Mahammadjanovna
Namangan State University

Annotation: This article explores Thanks to the translation, a new ideological direction, a new plot, a genre, a new image and means of artistic representation enter the national literature. In this sense, translation can be described as the art of re-creating the original, interpretation.

Key words and expressions: plot, genre, new image, effectiveness of literature, didactic, interactive

**ЛИНГВО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПЕРЕВОДА
ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ФРАНЦУЗСКИХ
ПЕРЕВОДОВ Б.ЕРМАТОВА)**

Садриддинова Дилдора Махаммаджановна
Наманганский государственный университет
Преподаватель

Аннотация:Статья посвящена бпереводу в национальную литературу входит новое идейное направление, новый сюжет, жанр, новый образ и средства художественного изображения. В этом смысле перевод можно охарактеризовать как искусство воссоздания оригинала, интерпретации.

Ключевые слова: сюжет, жанр, новый образ, эффективность литературу, дидактика, интерактивный.

Ma'lumki, tarjima inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz jamiyat taraqqiyoti tarixining barcha tafsilotlarini ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjima xalqaro do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. U turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladi. Shu bilan birga, tarjima tillarning 4 rivojlanish sur'atini jadallashtiruvchi, lug'at boyligini oshiruvchi va takomillashtiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlar tarjimini inson ma'naviy hayotini boyituvchi, ona tilining bor bisotini ro'yobga chiqaruvchi, ayni paytda, uning serjilo bo'lishini ta'minlovchi, kitobxonning tafakkurini charxlab, yangi g'oyalar, tushunchalar bilan boyituvchi xususiyatga ega ekanini dalillaydi. Shuningdek, tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat kiladi.

Tarjima tufayli milliy adabiyotlarga yangi g'oyaviy yo'nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiiy tasvir vositalari kirib keladi. SHu ma'noda, tarjimini asliyatni qayta yaratish, talqin etish san'ati deb ta'riflash mumkin. Tarjimaning maqsadi u yoki bu tilda yaratilgan matnni ikkinchi bir til vositasida qayta yaratishdan iborat. Buning uchun tarjimondan, birinchi navbatda, asliyat mazmun-mohiyatini to'la-to'kis idrok etish, uni o'girilayotgan tilda bekam-ko'st qayta ifodalashga erishish talab qilinadi. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor berilmoqda.

Tarjimashunoslik bo'yicha yaratilayotgan tadqiqotlarda tarjima nazariyasi va amaliyotining juz'iy masalalari bilan bir qatorda, mazkur sohaning tub mohiyatini aks ettiradigan umumnazariy muammolar ustida ham keng ko'lamda izlanishlar olib borilmoqda va tarjimashunoslik masalalari tadqiqotchilarni borgan sari ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. Tarjimaga lingvistik nuqtai nazardan yondashilsa, tarjimini bir tilda yaratilgan matnni uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratish maqsad qilib qo'yilgan ijodiy jarayon sifatida ta'riflash mumkin. Demak, tarjima jarayonida asliyat tili vositalari yordamida yaratilgan asar tarjima tili qonuniyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda qayta yaratiladi. SHu yo'l bilai asliyat va tarjima matnlarining mazmuniy-uslubiy muqobilligi (adekvatligi) yuzaga keladi. Mazkur jarayon bevosita tillararo hamkorlikka aloqador bo'lib, lingvistik 5 tarjimashunoslik faoliyatining asosiy vazifasi mazkur amaliyot bilan bog'liq.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari boshida fransuz olimi E.Karining "Tarjima nazariyasi sari" va amerikalik tilshunos YU.Naydaning "Tarjima nazariyasi xususida" nomli mazmunan bir-birini to'ldiruvchi tadqiqotlari bosilib chiqdi. E.Kari o'z kitobida

tarjima nazariyasini mustaqil fan tarzida e'tirof etish bilan birga umumiy "tarjima nazariyasini yaratmoq payti keldi", degan fikrni bildirgan bo'lsa, YU.Nayda tarjima amaliyoti va nazariyasining vobasta ilmiy tamoyillarini ishlab chiqmoq lozimligini uqtirish bilan, tarjima nazariyasiga "dinamik ekvivalent" (so'zlarning teng ma'noli muqobillari) tushunchasini olib kirdi.

Umuman, fransuz-o'zbek adabiy aloqalari uzoq va qadimiy tarixga ega. 1 Keyingi yillarda Parijdagi SHarq tillari va madaniyatlarini o'rganish Milliy instituti (INALCO) professori, doktor Remi Dor janoblarning o'zbek tili va adabiyotini o'rganish bo'yicha olib borayotgan tadqiqotlari tahsinga loyiqdir. Doktor Remi Dor turkiy tillar va turkiy xalqlar folklorini o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar muallifi bo'lib, taniqli sharqshunos olimdir. Uning tashabbusi va rahbarligida "Fransuzcha-o'zbekcha lug'at" va "O'zbekcha-fransuzcha lug'at"lar nashr qilindi. 2005 yilda bu olim o'zbek xalq eposi – "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Nurali" dostonini asliyatdan fransuz tiliga o'girib, uning o'zbekcha-fransuzcha matnlarini yonma-yon holda chop ettirdi.

Tarjimonning dostonga yozgan so'zboshisi va keltirgan ilmiy sharhlari asarni mutolaa qilayotgan o'quvchi uchun o'zbek xalq eposi xususida keng va zarur ma'lumotlar berishga xizmat qiladi. Doktor Remi Dorning 2006 yilda Parijda nashrdan chiqqan "Alisher Navoiy muammolari" nomli risolasi fransuz sharqshunosligining so'nggi yillardagi yutuqlaridan biridir. Olib borilgan bunday tadqiqotlar o'zbek va fransuz folklori namunalarining lingvopoetik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Lekin shu kunga qadar fransuz xalq eposlari, ayniqsa, mashhur "Roland haqida qo'shiq" eposi matnining lingvopoetik xususiyatlari mamlakatimizda filologiya ilmida maxsus tadqiqot mavzui bo'lganicha yo'q. Mazkur holat tadqiqotimizning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Fransuzcha-o'zbekcha gaplarning sistem-struktural, lingvodidaktik va komparativ tahlili asosida substansial (formal-funksional) tadqiq usuliga yo'l ochildi. Tildagi "me'yoriy" va "nome'yoriy" sintaktik hodisalarni aniqlashtirishga amaliy yordam berdi, shuningdek, kognitiv tilshunoslikka asosan inson ongi bilan bog'liq nutqiy hosilalarning alohida leksik, morfologik, sintaktik sath birliklarini ajratib o'rganish - GSHG va semantik-funksional shakllangan gaplar (qisq. SFSHSG)lar ko'rinishlarini farqlash, til sathlarining bo'linuvchanlik, yaxlitlik, butunlik, yakkalik, murakkablik kabi dialektik komparativ tahliliga imkonini yaratdi. SFSHSGlarning an'anaviy ko'rinishlari E.SHodmonov, S.Usmonov, B.O'rinboev, H.Boltaboeva, R.Komiljonova, S.Sanoev, R.Mo'minova, G'.Zikrillaev, A.Hazratqulov tadqiqot ishlarida va sistemstruktur ko'rinishlari esa R.Sayfullaev, R.Bobokalonovlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

XV asrga kelib fransuz xalq eposlari qayta ishlandi, faqat o'qish uchun moslashtirilib, nasriy shaklga ega bo'ldi va romanlarga aylanadi. Bu asarlar dastlab zodagonlar uchun mo'ljallangandilar, keyinchalik, XVII asrdan boshlab "Bibliothique

Bleue” (YAshil kutubxona) orqali oddiy xalq ommasiga etib bordi. Mana shu romanlar orqali fransuz romantiklari XIX asrda oʻrta asrlar adabiyoti bilan tanishdilar va ularni klassitsizm 1 SHishmarev V.F. Kniga dlya chteniya po istorii fransuzskogo yazyka.— M.-L.; Nauka ,1956. – S. 52-54. 15 aqidalariga qarshi qoʻydilar. Ayniqsa kurtuaz adabiyot rivojlangan XII asrning ikkinchi yarmi va feodal jamiyatning asosi boʻlmish soflik va sadoqat tamoyillari oʻzgarib boshlagan XIII asrdan boshlab romantizm unsurlari fransuz eposini tobora toʻldira boshladi. Ilk fransuz xalq eposlarining soddaligi oʻrnini gʻalati sarguzashtlar, qaxramonlar sexrgarlar va afsungarlarni uchratib, turli maxluqlarga qarshi kurasha turib, jannatmakon oʻlkalarga sayohat qilgan ajoyib sayohatlar egallay boshladi.

Ularning barchasida deyarli bir holatni, bir xil shartli personajlarni: qahramon, qoʻrqoq va xoinni uchratish mumkin boʻlib qoldi. “Roland haqida qoʻshiq”da deyarli boʻlmagan muhabbat motivi borgan sari muqim oʻrin egallay boshladi: kitobxonlar orasida ayollar salmogʻi ortib bordi. Ularda makr jasoratdan koʻra ustun qoʻyila boshlandi; yuksak tuygʻular qatori ularga parodiya hisoblangan soxta qaxramonlikka koʻp oʻrin berila borildi. Qadimiy fransuz jestalari bilan soxtalashtirilgan bu xalq eposlari oʻrtasida hech qanday yaqinlik kuzatilmaydi. Biroq XIII va XIV asr truvelari ularni oddiy qoʻshiqlarga yaqinlashtirib, turkumlarga birlashtirishga harakat qildilar. Bu turkumlar (jesta ham deb ataladi) turli davrlarda yashagan turli mualliflar tomonidan bitilgan asarlarni oʻzida jamlashtirgan boʻlib, ularning markazida faqat bir qaxramon yoki uning oilasidan boʻlmish aslida xayoliy insonlar: oʻgay ota, qarindoshurugʻ, amaki-jivanlar turar edilar. SHu sababli kitobxonlar oʻzlarining sevimli qaxramonlari yoki ularning qarindosh-urugʻlarining keyingi sarguzashtlarini bilish uchun aynan bir turkum qoʻshiqlarni oʻqishga majbur boʻlardilar. SHu tariqa uch asosiy turkum qoʻshiqlari paydo boʻldi: 1. Buyuk Karl obrazi bosh oʻrinni egallagan Qirollik jestasi (La geste du Roi), “Roland haqida qoʻshiq” ham shu turkumga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aznaurova E.S “Translation theory and practice”. “Oʻqituvchi” 1989. pp 183
2. Musayev.Q. “Tarjima nazariyasi asoslari”. Darslik. “Fan” nashriyoti, 2005.-222c
3. Moʻminov. O. “Sinxron tarjima”. Toshkent – 2005.-182 s.
4. Moʻminov O. English for translators. Toshkent: Akademiya. 2005.-B.114. 8.
5. Salomov .Gʻ. “Tarjima nazariyasi asoslari”. Toshkent, “Oʻqituvchi” –1983,-228
6. Sh.Valiyeva :Theoretical and Methodological Basis of Determination of the Content of Multimedial Electronic Textbooks/ Vol. 2 No. 2 (2022): International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology